DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-05-03-72 Pages: 628-638

Oriental Journal of Philology



ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about



# THE ARTISTRY OF THE SHORT NOVEL "RABBITS" BY THE CONTEMPORARY EGYPTIAN WRITER SALWA BAKR

***Nasiba A. Umarova***
*PhD student,*
*Department of Arabic Studies*
*Tashkent State University of Oriental Studies*
*Email: umarovan362@gmail.com*
*Uzbekistan, Tashkent*

## ABOUT ARTICLE

**Key words:** symbol, irony, sarcasm, landscape, contrast, comparison, socio-political problems.

**Received:** 06.03.25
**Accepted:** 08.03.25
**Published:** 10.03.25

**Abstract:** Modern Egyptian literature, particularly the novel genre, demonstrates its national characteristics through the vividness and uniqueness of its writers' styles. Although the features of the formation and development of the novel genre and the works of its representatives have been studied to some extent in the literature of Egypt, Syria, Iraq, Tunisia, Lebanon, Jordan, Palestine, and several other Arab countries of the 20th century, the work of the famous representative of Egyptian literature Salwa Bakr has been relatively little studied. Studying contemporary Egyptian literature, particularly the works of Salwa Bakr, allows for a more complete understanding of the development of general Arabic literature, especially Egyptian literature. Many of her works have been translated into various languages. She is the author of several collections of short stories and novels. The writer's short novel "Rabbits" is also considered a work that has earned readers' recognition for its unique artistry. In this article, the artistry of Salwa Bakr's work "Rabbits" is revealed through quoted passages.

## ZAMONAVIY MISR ADIBASI SALVA BAKRNING “QUYONLAR” QISQA ROMANI BADIIYATI

*Nasiba A. Umarova*
*Tayanch doktorant,*
*Arabshunoslik oliy maktabi*
*Tohkent davlat sharqshunoslik universiteti*
*Email: umarovan362@gmail.com*
*O'zbekiston, Toshkent*

**MAQOLA HAQIDA**

**Kalit so'zlar:** ramz, kinoya, sarkazm, peyzaj, tazod, tashbeh, ijtimoiy-siyosiy muammolar.

**Annotatsiya:** Zamonaviy Misr adabiyoti, xususan, romannavisligi o'zining serjiloligi va ijodkorlar uslubining o'ziga xosligi bilan o'z milliy xususiyatlarini namoyon qiladi. XX asr Misr, Suriya, Iroq, Tunis, Livan, Iordaniya, Falastin va boshqa bir qator arab mamlakatlar adabiyotida roman janrining shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari, uning namoyandalari ijodi muayyan darajada o'rganilgan bo'lsa-da, Misr adabiyotining taniqli vakili Salva Bakr ijodi nisbatan kam o'rganilgan. Uning ko'plab asarlari dunyo tillariga tarjima qilingan. Adiba bir qancha hikoyalar to'plami va romanlar muallifi hisoblanadi. Adiba qalamga mansub "Quyonlar" qisqa romani ham o'zining takrorlamas badiiyati bilan kiobxonlar e`tirofiga azovor bo'lgan asar hisoblanadi. Maqolada Salva Bakrning "Quyonlar" asari badiiyati keltirilgan parchalar orqali ochib beriladi.

# ХУДОЖЕСТВЕННОСТЬ КОРОТКОГО РОМАНА "КРОЛИКИ" СОВРЕМЕННОЙ ЕГИПЕТСКОЙ ПИСАТЕЛЬНИЦЫ САЛЬВЫ БАКР

*Насиба А. Умарова*
*PhD докторант,*
*Высшая школа арабистики*
*Ташкентский государственный университет востоковедения*
*Email: umarovan362@gmail.com*
*Узбекистан, Ташкент*

**О СТАТЬЕ**

**Ключевые слова:** символ, ирония, сарказм, пейзаж, антитеза, сравнение, социально-политические проблемы.

**Аннотация:** Современная египетская литература, в частности романистика, демонстрирует свои национальные особенности яркостью и уникальностью стиля писателей. Хотя в литературе Египта, Сирии, Ирака, Туниса, Ливана, Иордании, Палестины и ряда других арабских стран XX века в определенной степени изучены особенности становления

и развития жанра романа, творчество его представителей, творчество известного представителя египетской литературы Сальвы Бакр изучено относительно мало. Многие ее произведения переведены на языки мира. Она является автором нескольких сборников рассказов и романов. Короткий роман писательницы "Кролики" также считается произведением, завоевавшим признание читателей своей неповторимой художественностью. В статье художественность произведения Сальвы Бакр "Кролики" раскрывается через цитируемые отрывки.

**Kirish.** XX asrning 60-90 yillarida ham Misr adabiyotida yangilanish jarayonlari ro‘y berdi. Ushbu yillarda Misr romannavisligi yangi zamonaviy bosqichga ko‘tarildi. Bunda adabiyot jahondagi ro‘y bergan adabiy jarayonlar, yangi metodlar va ijodiy izlanishlardan holi bo‘lmagan tarzda rivojlana bordi. Yangi davrda badiiy ong va estetik dunyoqarash o‘ziga xos tarzda shakllanib bordi, shu bilan birga bir tarafdan g‘arb adabiyotining sharq adabiyotiga bo‘lgan ta`siri va boshqa bir tarafdan milliy meros an`analariga tayangan holda turfa madaniyatlar va milliy qadriyatlar o‘rtasida o‘zaro almashinuv jarayonlari ham yuz berdi, bu o‘z navbatida adabiy jarayonlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Mana shunday ijodiy izlanishlar samarasi o‘laroq yozuvchilar yangicha ruhda ko‘plab asarlar yaratishdi. Yangiliklarga to‘la hayotimizning har jabhasida kundan kunga yangilanishlar va o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Bu jarayon adabiyotga ham ta`sir o‘tkazmay qolmayapti. Adabiy jarayonlarning jadal suratlarda taraqqiy topishida so‘z san`atining yangilangan qiyofasi o‘z ta`sirini o‘tkazmoqda. Mana shunday yangilanishlar ta`sirida bunyod bo‘lgan asarlardan biri -“Quyonlar” qisqa romanidir. U o‘ziga xos badiiyati bilan boshqa asarlardan ajralib turadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha ma’lumotlarni bir qator arab tiliga oid manbalar va kitoblarda uchratish mumkin. Mazkur ishda yirik arab, o‘zbek va rus olimlarining, xususan, Rus olimlaridan V.Kirpichenko va V.Safronov, B.Chukov, arab adabiyotshunoslaridan Muhammad Badaviy va R.U.Xodjaeva, D.A.Muborakova va boshqalarning manbalaridan foydalangan holda Salva Bakr “Quyonlar” romani tahlilga tortildi. Tadqiqot materiallarining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ular ilmiy tavsiflash va qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik kabi usullar asosida o‘rganildi.

Natijalar. O‘zbek adabiyotshunos olimi, adabiy tanqidchi va iste`dodli yozuvchi Nazar Eshonqulning badiiy adabiyotning bosh qahramoni haqidagi fikrlari juda qimmatlidir:“-Shunga qaramay, men adabiyot inson dardi va orzusi bilan yashashi kerak deb bilaman. Uning bosh

qahramoni ham bugungi qayg‘urayotgan, orzu qilayotgan, alam chekayotgan, kulayotgan, o‘ylanayotgan, izlanayotgan, iztirob chekayotgan, yo‘l axtarayotgan INSONdir. Yozuvchi faqat o‘sha insonni zamon talato‘plari ichidan topa olishi kerak. Zamon qahramoni ham o‘sha INSONdir!”.(Eshonkul, 2014, p. 60) Salva Bakr ham zamon qahramonini topib, uni o‘z asarining markaziga qo‘ya olgan mahoratli adibalardan sanaladi. “Quyonlar “ qisqa romani bosh qahramoni ham huddi o‘sha INSONdir. Oddiy xalq vakilining og‘ir turmushi va dard-alam bilan limmo-lim qalbini qalamga olishi yozuvchi Salva Bakrning o‘ziga xos yozish uslubini belgilaydi. Shu sababli ham u arab olamida yuksak mavqega ega Mahmud Darvish mukofotini qo‘lga kiritgan. “Salva Bakr yozuvchilkni "zolimlar bilan kurashish" vositasi sifatida biladi va "ayollarning ezilishi" haqida mulohazalar yuritadi, shuningdek xalq xotirasini rasmiy tarixchilar tomonidan soxtalashtirish masalasiga e`tibor qaratadi. Uning zulmga qarshi ko‘p qirrali isyoni uni dunyodagi barcha ozodlik va emansipatsiya masalalari uchun kurashchiga aylantirdi. Bularning barchasi yozuvchi Salva Bakrga Mahmud Darvish mukofotining berilishini oqlaydi.” (Shaib, 2017). U eng quyi qatlam vakillarining azob-u uqubatlarini asarlarga olib chiqqan misrlik mashhur yozuvchi Xayri Shalabiy izdoshi hisoblanadi.

Salva Bakr yozishga ilhom beruvchi kuch haqida quyidagicha fikr bildirib o‘tgan: “Men uchun o‘zimni anglashning asosiy mezoni - bu meni tanimaydigan odam bilan uchrashganimda, u mening biror harakatim unga ta’sir qilganini aytsa, qoniqish hosil qilishimdir. Esimda, bir kuni Italiyaning Palermo shahrida ko‘rgazmada marhum misrlik yozuvchi Baha Tohir bilan birga edim. Bizni Aldo Nochche ismli, arab tilini biladigan va Sitsiliyada politsiya uchastkalarida ishlaydigan italiyalik tarjimon kuzatib bordi. Men unga "Quyonlar" nomli qisqa romanim nusxasini berdim. Bir necha oydan so‘ng u menga samimiy minnatdorchilik xatini yubordi, chunki u o‘zini roman qahramoniga o‘xshatganini his qilgan ekan va hatto romanni italyan tiliga tarjima qilishga qaror qilgan ekan.” (Obaid, 2020). Bundan ko‘rinib turibdiki, Salva Bakr jamiyatning ba`zi qatlam vakillarining aynan aksini oyna misol ko‘rsata olish qobiliyatiga ega iste`dodli, qalami o‘tkir, nuktadon yozuvchi hisoblanadi.

"Quyonlar" - bu Salva Bakrning o'ziga xos ovozi va adabiy yondashuvi bilan singdirilgan zamonaviy Misr jamiyatining orzulari, armonlari va intilishlarini aks ettiruvchi muhim asar. Badiiy adabiyot mavjud tajribalarga tayangan holda tinimsiz yangilanib, boyib va takomillashib boradigan intellektual-estetik hodisadir. Misr qisqa romani ildizlari ham “yangi roman” tamoyillaridan sug‘orilib hozirgi qiyofaga ega bo‘lgan.

Salva Bakr ijodida ramzlar  katta o‘rin tutadi. Adiba uslubidagi bu muhim xususiyat norvegiyalik dramaturg Henrik Ibsen metodiga juda yaqin . Juz`iylik va umumiylikning o‘zaro aloqasi axloqiy muammolarga urg‘u berish Ibsen pyesalarida realizmning ramziylik bilan

uyg‘unlashib ketishini ta`minlagan. Salva Bakr bu asar g‘oyasini ochib berishda ham realizm va ramz aralashmasidan foydalanadi.

“Dunyo globallashgani sari ijodiy jarayonda real borliqni mavhum qabul qilish salmog‘i ham ortdi. Ilohiy tasavvurlarni ifoda qilish va ijodning mutlaq Yaratuvchi bilan munosabatini anglatish imkoni yuzaga keldi. Zotan, so‘z san`atkori ijodiy taxayyul vositasida oddiy ko‘z bilan ko‘rish mumkin bo‘lmagan xilqatlarni ilg‘abgina qolmay, uni ramziy belgilarda aks ettirishga ham erishadi”. (Boltaboyev, 2015, p.198). Muallif “Quyonlar “ qisqa romanida ham ijodiy tasavvuri vositasida ramziy obrazlarga asar g‘oyasini ustalik bilan singdirib yuborgani tahsinga sazovordir.

Roman quyon-odamlarga to‘la dunyo haqida hikoya qiladi, ammo kitob oxirida siz faqat quyonlar emas, balki ular bilan yashaydigan boshqa guruhlar, masalan, itlar, tuyalar va qushlar ham borligini va ularning har biri jamiyatda o‘z o‘rniga ega ekanligini bilib olish mumkin, chunki ular ishtirokida yana bir nechta qisqa hikoyalar ham berib o‘tilgan.

Roman 78 sahifadan iborat. Asar kompozitsiyasi to‘rt bo‘limga bo‘lingan, bo‘limlar sarlavhalanmagan, faqatgina raqam bilan tartiblangan. Asar muallif-hikoyachi tomonidan bayon qilinadi. Bosh qahramon Qohirada yashovchi oddiy ishchi xodim Usama. Yoshi 45 da, rafiqasi Hayat va ikki qizi bilan nurab tushay deyotgan juda tor kvartirada yashaydi.

Quyidagi berilgan parchada peyzaj - joy tasvirining tavsifi Usamaning ichki olami bilan uyg‘unlashgan holda tasvirlangan, bunda yozuvchi tazod san`atini mohiron qo‘llab asarning ta`sir kuchini yanada oshirgan. Tazod, mutobaqa, mutazod (arab-zidlash )- badiiy tasvirning ta`sirchan va keng qo‘llaniladigan vositalaridan.nasrda ham, nazmda ham uchraydi. O‘zaro zid tushunchalarni ifodalovchi so‘z yoki iboralarni ishlatishda ko‘zga tashlanadi.

وهو في طريقه إلى عمله داخل سيارة النقل العام، بدت له الحياة ذات مذاق مختلف فى ذلك اليوم. فالجو لطيف مقبول على رغم حرارة شهر أغسطس المرتفعة ورطوبته المعهودة التي تصيب الأبدان باللزوجة وبالتعرق السخيف الذى لا تطاق رائحته المختلطة بروائح بصل الإفطار الفائحة من زفير الركاب. حتى النيل بدا في عينيه أكثر بهاء وعظمة عندما مرت السيارة بجانبه في ذلك الوقت ولا يشبه النيل الحزين المنكسر الذي اعتاد أن يراه كل يوم قبل ذلك. كاد أن يصفر بلحن أغنية الدنيا ربيع والجو بديع.

Jamoat transportida ishga ketayotib, unga o‘sha kuni hayot boshqacha tus olgandek tuyuldi. Avgustning jazirama issig‘iga, badanni yopishqoq qiladigan odatdagi namlikka vachilarning nafasidan taralayotgan ertalabki piyoz isiga aralashib ketgan bema’ni ter hidining chidab bo‘lmas hidig yo‘lova qaramay, havo yoqimli edi. Mashina shu payt yonidan o‘tayotganda, hatto Nil daryosi ham unga ilgarigidan ko‘ra go‘zalroq va ulug‘vorroq ko‘rindi, har kuni ko‘rib o‘rgangan g‘amgin, ezilgan Nilga o‘xshamasdi. “Dunyo bahor, ob-havo ajoyib” qo‘shig‘ining kuyi yangrab turganday edi. (Bakr, 2004, pp.10-11)

“Badiiy asarda tabiat tasvirining yana bir muhim jihati voqea kechgan joyni ko‘rsatish orqali sezilarsiz ravishda u yoki bu personaj xarakterining shakllanish omillariga ishora qilishdan iboratdir.”(Yoldosh & Yoldosh, 2016, pp.196-197) Umumiy olib qaraganda Usamaning hech o‘zgarishsiz takrorlanuvchi hayot tarzining juda oddiyligini va qahramon kayfiyatidagi o‘zgarishlar, doimo tushkunlikda yurgan odamnikidan farq qilayotganini, Hayotida sodir bo‘lgan quvonchli hodisa, ya`ni uyda parvarish qilayotgan quyonlarning bolalashi unga olam-olam rejalar, umidlar olib kelgan edi. Bu orqali u o‘z hayotini izga solib, muammolarining bariga yechim topmoqchi bo‘ldi.Endi unga hatto g‘amgin va mungli ko‘ringan Nil ham naqadar go‘zal, ulug‘vor ko‘rinayotganidan ham sezishimiz mumkin. Bu o‘rinda o‘ta issiq va namiqqan, buning ustiga badbo‘y hidlar, huddi mayin va yoqimli bo‘lishi, mahzun va siniqqan Nilning ham salobatli va ulug‘vor ko‘rinishida qarshilantirish san`atini yaqqol ifodasi sifatida ko‘rinadi. Arab olamida ma`lum-u mashhur “Dunyo - bahor, ob–havo ajoyib” qo‘shig‘i ham uning tashqi olamga boshqa nigoh bilan ko‘tarinki ruhda qarayotganidan darak beradi.Arab dunyosida “Dunyo - bahor, ob–havo ajoyib” qo‘shig‘i eng mashhur qo'shiqlardan biridir. So‘zi Salah Jahin, musiqasi esa Kamol Tovilga tegishli. Bu qo‘shiqni “Amira mening muhabbatim” filmi uchun Suad Husni kuylagan. Film yozuvchi Najib Mahfuzning “Ko‘zgular”asari asosida suratga olingan. Bu kino birinchi marta 1975-yil 7-yanvarda kinoteatrlarda namoyish etilgan.

“Salva Bakr personajlari ko'pincha cheklanganligi bilan ajralib turadi. Ota va turmush o'rtog'i Usamani olaylik, kichik tuzatishlar va rejalar orqali hayotini yaxshilashga harakat qilib, o'z hayotining buyuk, rad etilgan orzulari haqida mulohaza yurituvchi obrazni, "Quyonlarda" yaratgan. Salva Bakr Usamaga o‘zining atrofidagi tuxum qobig'i kabi ishonchli, ammo mo'rt umidni singdirishga muvaffaq bo'ladi.” (Krajeski, 2010). Ushbu ta`riflar Usamaning shaxsiyatini juda haqqoniy ochib bergan. Usama harchand hayot sinovlariga yengilmay,harchand tinmay harakat qilmasin, u baribir o‘zining tuxum po‘stlog‘iday mo‘rt umid uchqunlarini birin ketin so‘nib borayotganini inkor eta olmas edi.Usama hayoti naqadar og‘ir bo‘lmasin, u barcha qiyinchiliklarni yengib o‘tayotgani, har bir kuniga shukr qilib yashayotganini, asosiy ishidan tashqari qo‘shimcha ishda ishlashi va buning evaziga olgan puliga sal bo‘lsa-da hayotini yengillatish ilinji borligini ko‘rishimiz mumkin. Bunda biz yozuvchining asar tarkibiga metonimiya san`atini ustalik bilan singdirib yuborganidan ko‘rishimiz mumkin.

تعرض ثلاثة أفلام دفعة واحدة في كل حفلة من حفلاتها، وكان يتقاضى شهرياً خمسين جنيهاً لا غير؛ مقابل إرشاد رواد هذه السينما إلى مقاعدهم المخصصة بصالة العرض. كان عليه خلال ذلك التعامل مع السمكرية والميكانيكية، وصبية المحلات، إضافة إلى البلطجية والشضلية وجميع الأصناف الواقعة من قعر قفة المجتمع، والتى رأى كل لون وصنف من أنواعها

“Bu kinoteatrda har bir seansda uchta film ketma-ket namoyish etilardi, u esa buning evaziga oyiga atigi ellik junayh olardi. Uning vazifasi tomoshabinlarni kinoteatrdagi belgilangan

joylarga kuzatib qo‘yish edi. Shu davrda u santexniklar, mexaniklar va sotuvchilar bilan, shuningdek, jinoyatchilar, bezorilar va jamiyatning quyidagilari bilan muloqotda bo‘lishga majbur bo‘ldi. U bu odamlarni har xil irq va toifadan ko‘rdi.(Bakr, 2004, p.11).

Yozuvchi ta`rif berayotgan “jamiyatning eng quyidagilari” bilan ham o‘z o‘rnida muomala qilish va o‘zi yoqtirmagan ish bilan majburan ishlashga roziligidan ko‘rinib turibdiki, asar bosh qahramoni Usama rostan ham o‘ta og‘ir ahvolda qolgan. Bu o‘rinda muallif “eng quyidagilar” deb metonimiya san`atidan, ya`ni qism munosabatidan ma`no ko‘chishi ro‘y bergan. Ya`ni adiba jamiyatning “eng quyi eng pastki qatlam vakillarini” eng quyidagilar deb atagan, buni biz qisqalikka intilish sifatida ham ko‘rishimiz mumkin. U hatto hayotini xavf – xatarga berib bo‘lsa-da jinoyatchilar, o‘g‘rilar va bezorilarga ro‘baro chiqishga ham tayyorligi Misrda oddiy ishchi xodimning ahvoli naqadar ayanchli va achinarli ekanligini anglatadi. Bu satrlarni o‘qigan kitobxon beixtiyor Usamaning ahvoliga achinish hissini tuyadi.

Muallif asarda tashbeh san`atida mohirona foydalanib asarning badiiy jihatidan boyitishga erishgan. Quyidagi parchada buni yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

وعلى رغم كل تلك الساعات الطويلة التي كانت تمر عليه وكأنها دهر من الزمان، والتى يعود بعدها إلى بيته شاعراً بجسده وكأنه جوال ثقيل من الملح، وأنه لا يبغى من الحياة وحياة سوى الإلقاء بنفسه الفراش والنوم حتى صباح اليوم التالي على الرغم من كل ذلك الإجهاد والتعب كان يبيت ليلته راضياً مطمئناً بل يعتبر نفسه من المحظوظين؛ لأنه وفق في الحصول على عمل إضافي يُدر عليه مبلغاً يساعد في زيادة دخله المحدود؛

“Uning uchun abadiyatdek tuyulgan uzoq soatlar o‘tib, uyga qaytganida, go‘yo tanasi tuz to‘ldirilgan og‘ir qopga aylangandek his qildi. Barcha stress va charchoqqa qaramay, o‘zini to‘shakka tashlab ertasi kuni ertalabgacha uxlashdan boshqa hech qanday istagi yo‘q edi. Shunday bo‘lsa-da, u tunni mamnun va xotirjam o‘tkazdi, hatto o‘zini omadlilardan biri deb hisobladi. Chunki u o‘zining cheklangan daromadini oshirishga yordam beradigan qo‘shimcha ish topishga erishgan edi”(Bakr, 2004, pp.11-12).

Usamaning qo‘shimcha ishida o‘tkazgan soatlarini yozuvchi huddi asrga tenglashtiryapti, bu yerda mubolag‘a san`atidan juda mahorat bilan foydalanib tasvirlagan. Bundan ko‘rinib turibdiki, og‘ir mashaqqat bilan o‘tayotgan har bir soniya daqiqalarga, daqiqalar esa uzun soatlarga, soatlar esa asrlardek o‘tayotganini go‘zal tasvirlaydi. Hammaga ma`lumki inson sevimli mashg‘uloti yoki yoqtirgan kasbi bilan shug‘ullansa vaqt juda ham tez o‘tib ketadi, hech ham qt to‘xtab qolgandek tuyiladi. Usamada ham huddi shunday vaziyat. Yozuvchi buni uzoq tavsiflamay, birgina tashbeh san`atini qo‘llab, o‘z fikrini aniq yetkazib bergan. Usama ishdan qaytib kelganida esa huddi og‘ir tuz charchamaydi va bundan zavqlanadi. Buning aksi bo‘lganida esa, vaqopi singari og‘irlashib, charchab, madorsiz qolganini mahorat bilan qiyoslagan. Lekin bularning barchasiga qaramay Usama o‘zini “baxtlilar”dan hisoblashini keltirib, shu o‘rinda kuchli sarkazm qo‘llagan. Qo‘shtirnoq ichidagi “baxtlilar” bu qo‘shimcha

ish topganlar. Bu juda kulgili va shu bilan juda achinarli holat. Bu birgina jumla bizga Misrdagi o‘g‘ir ijtimoiy muammolardan biri bu ishsizlikni qanchalar keng yoyilganligini va ularning og‘ir turmush sharoitini izohlaydi. Shu o‘rinda yozuvchining asar g‘oyasini juda siqiq va aniq tasvirlashi, ortiqcha bayonchilik va tavsiflardan qochishi Misr qisqa romanlarining asosiy xususiyatlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Qo‘shimcha joydagi ishlab topadigan puli Usamaning hayotidagi muammolarining faqatgina ba`zilarini yechishgagina yordam berishini quyidagi parchada ham yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Bu yerda ham tazodni, (ya`ni qarshilantirish san`atini) ustalik bilan qo‘llagan:

إذ ساهمت في تقليل عدد وجبات البصارة والعدس بنوعيه الأصفر وأبو جبة التى كانت معدلاتها تتزايد اطرادياً مع اقتراب الشهر من نهايته. كما أنها لعبت دوراً حاسماً في تسديد القسط الشهرى لسخان المياه الذي كان لابد من شرائه رضوخاً لرغبة البنتين

“Bu oy oxiri yaqinlashganda ularning sanog‘i doimiy ravishda ko‘payadigan yasmiq ning sariq va Abu Jibba turlari va basara taomlari sonining kamayishiga yordam berdi, ikki qizning xohishiga ko'ra sotib olinishi kerak bo'lgan suv isitgichi uchun oylik to'lovni to'lashda ham u hal qiluvchi rol o'ynadi.” (Bakr, 2004, p.12).

Ta’sirchanlikni oshirish uchun muallif antonim, ya`ni ma`nosi bir biriga zid bo‘lgan so‘zlarni qo‘llash orqali ta`sir kuchini boyitgan, ya`ni bu (qo‘shimcha oylik ish haqqi) oy oxiri yaqinlashganda ularning sanog‘i doimiy ravishda ko‘payadigan yasmiqning sariq va Abu Jibba turlari va basara taomlari sonining kamayishiga yordam berdi deb ifodalagan. Bundan ko‘rinib turibdiki, Usama oylikdan oylikkacha zo‘rg‘a kun ko‘radi. Oyning oxiri oila uchun juda og‘ir kechishini yasmiq va basara taomlari tayyorlanish adadining ko‘pligidan ham bilishimiz mumkin. Qo‘shimcha ish haqqi esa mana shu “ko‘payish”larning “kamayish”iga yordam bera oladi xalos. Bu qo‘shimcha oylik maoshning yana bir asosiy vazifasi bu ikki qizining orzusi bo‘lgan suv isitgichning oylik to‘lovini ado etishdir. Bunda biz Usamaning uyi xaroba ekanligini, unda hatto suv isitgich ham yo‘q ekanligini sezishimiz mumkin. Bu juda ham achinarli holat. Shu o‘rinda biz yozuvchining qisqa satrlarda ma`noni qanday kuchaytira olish qobiliyatiga ega ekanligi, Usamaning uyi qanday jihozlanganini, ahvoli haqida ishonarli tasavvur hosil qilamiz.

Asar to‘laligicha kitobxonni o‘ziga jalb etadi. Unda ortiqcha hech bir so‘z yo‘q. Asardagi har bir jumla uning badiiyatini ochib berishga xizmat qilgan. “Quyonlar” romanida siyosiy, maishiy-ijtimoiy muammolar ko‘tarib chiqilganligi bilan ham ahamiyatlidir. Unda ishsizlik, buning oqibatida kelib chiquvchi turli yomon oqibatlar, ya`ni qashshoqlik, o‘g‘rilik, jinoyatchilik, korrupsiya, giyohvand moddalar savdosi, fohishabozlik kabi bir qancha illatlarning asosiy sababchisi ekanligi ochiq oydin ko‘rsatib berilgan.

Bundan tashqari Misrning eng og‘riqli nuqtalarini ham asar badiiy g‘oyasiga singdirib yuborganligi tahsinga sazovordir. Quyidagi parchada ham muallif badiiy so‘z orqali buni ifodalay olgan:

لقد تحمل أسامة عمله هذا على مضض، وتعرف من خلالـه على عـالم لم يتصـور يومـاً وجـوده في هـذه الـدنيا . كـان يشعر بداخله بنوع من المهانة والألم؛ إذ اضطرته الظروف إلى مخالطة حثالة بشرية فاقت كل ما شاهده من أمثالهـا على شاشـة السينما المصرية؛ إذ كان مع بداية عرض كـل فيلم، يـرى فيلمـاً آخـر على الطبيعـة موضـوعه اللـواط والمخـدرات، والتعليقـات البذيئة الصارخة

“Usama bu ishni istamayroq bajardi va shu sababli u o‘zi hech qachon mavjudligini tasavvur qilmagan dunyo bilan tanishdi. U ichida o‘zini xo‘rlangan va azob chekayotganday his qilardi. Vaziyat uni Misr kinosida ko‘rgan barcha narsalardan ham tubanroq bo‘lgan insoniy axlatlar bilan aralashib ketishga majbur qildi. Har bir filmning boshida u sahnada yana bir filmni ko‘rardi, u besoqolbozlik, giyohvand moddalar va ochiqchasiga behayo izohlar haqida edi.”(Bakr, 2004, p.13)

Usama majburlikdan va chorasizlikdan o‘zi yoqtirmagan ishni qilayotganini va uning uchun yangi oldin sira e’tibor bermagan yana bir olam mavjud ekanligi, ya`ni bu olam bezorilik, dilozorik, firibgarlik va yolg‘onlarga to‘la dunyo ekanini ko‘rib o‘zida xo‘rlik va og‘riq-alamni his etdi. Endi u muallif ta’kidlaganidek “inson chiqindilari” bilan aralashishga majbur bo‘ldi. Bu yerda yozuvchi metafora san`tini go‘zal namunasini yaratib, o‘ziga xos uslubini yana bir bora ko‘rsata olgan. “Inson chiqindilari” deya tasvirlanganlar - inson nomiga noloyiq ish qilayotganlar. Endi u avvalari guvohi bo‘lmagan “yangidan yangi filmlar”ni tomosha qilar o‘zi uchun yangi dunyoni kashf etardi. Bu o‘rinda yozuvchi Misr jamiyatining nuqson-u kamchiliklarini achchiq kinoya tarzida ifodalay olgan. Bu olam firibgar-jinoyatchilar, giyohvand va fohishalarning dunyosi sifatida tasvirlanadi. Shu o‘rinda yozuvchi o‘z asari orqali hozirgi kunda insoniyatning eng katta og‘riqli muammolarini ko‘tarib chiqib, kitobxonni o‘ylashga majbur etadi.

بدأ كل شيء غير عادى فى حياة أسامة صباح ذلك اليوم المشئوم، فقد وصـل الـوزارة متخلفـاً بضـع دقـائق عن موعـد العمل الرسمي بسبب تأخره فى النوم حتى قرب الفجر، بعد سهرة طويلة أمضاها بصحبة أسرته في عرس فتحية بنت | الجيران . كان . ارتدى ملابسه على عجل، وترك امرأته غارقة في النوم دون أن يوقظها لتمد له طعام الإفطار كما جرت العادة، كما أنه لم يقم بطقسه الصباحي الدائم المتمثل فى إلقاء نظرة سريعة على الأرانب في القفص. وأثناء وقوفه على محطـة الأتـوبيس تـذكر أنه نسى ساعة يده التي يحرص على ألا ينسـاها، ورأى فى شـرفة المـنزل المقابـل للمحطـة غسـيلاً منشـوراً أسـود اللـون يغطى الحبال كلها : فانقبض قلبه وتطير

Usama hayotidagi g'ayrioddiy hamma narsa o'sha mash’um tongda, u rasmiy ish kunidan bir necha daqiqa kechroq vazirlikka kelganida, qo'shnisining qizi Fatiyaning to'yida oilasi bilan o'tkazgan uzoq oqshomdan keyin deyarli tong otguncha uxlagani uchun boshlangan edi. U shosha - pisha kiyinib, qattiq uxlab qolgan ayolini uyg'otmasdan, shunda u odatdagidek

quyonlarni nonushta bilan ovqatlantiradigan ertalabki doimiy marosimini bajarmasdan uydan shoshib chiqdi. Vokzal ro'parasidagi uyning balkonida hamma arqonlarni qoplagan qora kirlarni ko'rdi, uning yuragi qisqarib, uchib ketdi(Bakr, 2004, p.40).

Yuqoridagi qora ramziy detali ham Usamaning qalb tug'yonlarini yanada yorqinroq ifodalashga xizmat qilib, asarning ta`sirchanligiga xizmat qilgan.

Olianing doimiy ravishda quyon tanovul qilishi ayniqsa qizlarning joniga tekkan, har kungi bir xillikdan zerikkan qizlar endi zaxarxanda sarkazmga boy bo'lgan so'zlarni ayamay yog'dira boshladilar. Ayniqsa Usamaning kichik qizi bundan juda norozi. Buni Usamaning hatto qiziga tarsaki tortib yuborishga ham tayyor ekanligidan sezishimiz qiyin emas.

Bu holat oila a`zolarining kayfiyatiga va yurish turishiga ham o'z ta`sirini o'tkazmay qolmadi. Chunki otasining faqat shu mavzuda gaplashishi va faqat quyondan tayyorlangan bir xil taomni har kuni iste`mol qilish qizlarning noroziliIigiga olib keldi. Ayniqsa Usamaning kenja qizi Samiyaning bu haqida o'z "haqiqatlari"i kinoyaviy tarzda keltirib o'tilgan:

ودخل البيت حتى سمع زعيق ابنته الصغرى سامية وهي تصيح غاضبة أرانب.. أرانب

عيشتنا أصبحت أرانب في أرانب كل يوم الأكل بالأرانب عاوزة سمك فراخ، أي نوع من أنواع اللحم غير الأرانب يـا عالم حرام عليكم، كأننا في سجن أو معسكر جيش، والأرانب مقررة

علينا وكأنها قدر

"Va u kenja qizi Samiyaning jahl bilan "quyonlar"deb qichqirayotganini eshitib, uyga kirdi. Bizning hayotimiz quyonlar ichidagi quyonlarga aylandi, biz har kuni quyonlarni iste'mol qilamiz, bizda na baliq, na tovuq go'shti bor, quyondan boshqa go'sht yo'q.Oh, dunyo harom bo'lsin sizga, xuddi qamoqxonada yoki harbiy lagerda bo'lganimiz kabi, quyonlar bizga atalgan . Biz uchun ular taqdirga o'xshaydi"(Bakr, 2004, p.26).

Ha, darhaqiqat Samiyaning ham o'z haqiqati va o'z qarashlari bor. Uning ham boshqa tengdoshlari singari baxtli yashashga haqqi bor. Lekin faqirlik bunga aslo yo'l bermayotgan edi.

Xulosa. Shunday qilib, o'rganilgan masala bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Salva Bakr "Quyonlar" asarida oddiy misrlik ishchi hayoti misolida Misrning eng dolzarb va og'riqli muammolarini tadqiq etadi.

2. Asarda badiiy til xususiyatlari ixcham uslubda tasvirlanadi va qahramon ruhiyatining yanada yorqinroq tasvirlash uchun xizmat qiladi. Bunda asosan tashbeh, tazod san`atidan unumli foydalanilgan.

3. Ramziylik aniq misollar, timsollar va badiiy detallar orqali ifoda etiladi, talqin uchun joy qoldiradi.

4. Asarda kinoya va sarkazm ustalik bilan qo'llangan. Asar qahramonlarining nochor ahvoli, ularning yashab qolishga bo'lgan urinishlari ortidan Misr siyosiy va ijtimoiy, maishiy muammolari o'tkir kinoya ostiga qo'yiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Bakr, S. (2004). Rabbits: A Novel and Short Stories. Aranib: Riwayat wa qisas qasira (3rd ed.). Madbouli Bookshop. –109 p (in Arabic)
2. Boltaboyev, H. (2015). Encyclopedia of Literature. Adabiyot ensiklopediyasi - Tashkent: Mumtoz soz, 664 p. (in Uzbek)
3. Chukov B., Dolinina A. (2001). History of Literature of Arab Countries in the 19th-20th Centuries. Istoriya literatury arabskikh stran v XIX-XX vekakh. Moscow. – 454 p. (in Russian)
4. Eshonkul, N. (2014). From "Me" to "Me." "Men"dan "Men"gacha. - Tashkent: Akademnashr. - 512 p. (in Uzbek)
5. Khodjaeva R. (1975). Artistic Prose and Dramaturgy of Abd ar-Rahman al-Hamisi. Khudozhestvennaya proza i dramaturgiya Abd ar-Rakhmana al'-Khamisi. Tashkent: – Fan. (in Russian)
6. Kirpichenko V., Safronov V. (2003). History of 19th-20th Century Egyptian Literature. Istoriya yegipetskoy literatury XIX-XX vekov. Vol. 2. - Oriental Literature, Russian Academy of Sciences. – 406 p. (in Russian)
7. Krajeski, J. (2010). Hen-picked: Salwa Bakr's Egyptian fables. Egypt Independent. https://www.egyptindependent.com/hen-picked-salwa-bakrs-egyptian-fables/(in English)
8. Mubarakova D.A. (2011). Reflection of Egyptian 'New Novel' Features in the Works of Gamal al-Ghitani and Sonallah Ibrahim. Jamol al-Gitoniy va Sunallokh Ibrokhim ijodida Misr "Yangi roman" xususiyatlarining in'ikosi: PhD dissertation - Tashkent: 2011.– 142 p. (in Uzbek)
9. Obaid, M. (2020). Salwa Bakr: Writing and the standard. SalwaBakr: Al-kitabat wa- l-mieyar. https://www.aljadeedmagazine.com (in Arabic)
10. Shaib, Y. (2017). Mahmoud Darwish Award for Creativity awarded to Maher Al-Sharif, Salwa Bakr, and Arundhathi Roy. Jaaizat Mahmud Darwish lil'iibdae munihat 'iilaa Makhir al Sharif wa Salwaa Bakr wa Arundati Ruy (n.d.). https://www.al-ayyam.ps/ar/Article/ (in Arabic)
11. Yoldosh, Q., & Yoldosh, M. (2016). Fundamentals of Literary Analysis. Adabiy takhlil asoslari - Tashkent: Kamalak. – 464 p. (in Uzbek)